

“Uzbekistan Airways” AJ Kiyevga parvozlari bekor qilinganini ma’lum qiladi

2022 24 Fevral

Ukraina havo hududi yo‘lovchi havo kemalari qatnovlari uchun yopilishi munosabati bilan, HY-3731/3732 Toshkent-Kiyev-Toshkent muntazam qatnovlari 2022-yilning 27-fevral va 2-mart kunlari rejalashtirilgan parvozlari bekor qilinadi.

Bekor bo‘lgan parvozlari yo‘lovchilari aviachiptalarining to‘liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki parvozlari qayta tiklanganidan keyin boshqa sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.

“Uzbekistan Airways” AJ yo‘lovchilarni jadvaldagi har qanday o‘zgarishlar haqida qo‘shimcha ravishda xabardor qiladi.